**“Autosanoat Agro lizing” MChJda 2025 yil III chorak uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida**

**HISOBOT**

**I. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot.**

“Autosanoat Agro lizing” MChJda, 2025 yil III chorakda quyidagi korrupiiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan ishlar amalga oshirilgan:

“Autosanoat Agro lizing” MChJning “Lizing qo‘mitasi nizomi”, “Jamiyat tomonidan mijozlarning lizingga texnika olish uchun taqdim etilgan xujjatlarni o‘rganib chiqish tartibi”, “Lizing siyosati” va “Jamiyat tomonidan mijozlarning lizingga texnika olish uchun taqdim etilgan xujjatlarni o‘rganib chiqish tartibi”da belgilangan talablarni bajarilishini o‘rganish, xavflarni aniqlash va oldini olish maqsadida jamiyatning barcha xodimlariga “Autosanoat Agro lizing” MChJ tomonidan qabul qilingan “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bo‘yicha ZOOM dasturi orqali (Bosh ofis xodimlari xizmat safarida bo‘lganligi uchun va mintaqaviy filial xodimlari) o‘qish mashg‘uloti o‘tkazildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025 yil 5 mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida ishtirok etganligi va Yig‘ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilanligi jamiyat xodimlariga yana bir bora eslatib o’tildi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida korrupsiya islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov ekanini ta'kidlab aniq maqsadga yo‘naltirilgan tashabbuslarni ilgari surdi hamda ular doirasida 5 ta qonun, 12 ta farmon va qarorlar ishlab chiqilshi aytildi.

Jamiyatning Ichki lokal xujjatlari, hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan qonun, farmon va qarorlar asosida takomillashtirilib borishi xodimlariga etkazildi.

**II. Siyosat va tartib-taomillar**

“Autosanoat Agro lizing” MChJning 04.10.2023 yildagi 31-i/ch sonli buyrug‘i bilan qabul qilingan komplaens nazoratiga oid siyosat, uslubiyot, nizom, reglament, yo‘riqnoma, kodeks, prosedura va qoidalar, jamiyat veb saytiga avval joylashtirilgan.

Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha asos bo‘lgan me'yoriy hujjatlarga hukumat tomonidan o‘zgartirishlar kiritilishi natijasida, jamiyat tomonidan qabul qilingan ichki hujjatlarga mos ravishda tegishli o‘zgartirishlar kiritilib loyihalar ishlab chiqilmoqda.

**III. Xavf-xatarlarni baholash**

“Autosanoat agro lizing” MChJ tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar quyidagi sohalar bo‘yicha tahlil qilingan:

“Autosanoat Agro lizing” MChJning birlashgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar ro‘yxati va korrupsiyaga qarshi kurash dasturi (“Yo‘l xaritasi”) va uning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar platformaga yuklangan.

“Autosanoat Agro lizing” MChJning 2025 yil uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash dasturi hamda Korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar qayta ko‘rib chiqildi va ro‘yxati shakllantirildi.

**IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar:**

**Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish**

2025 yilning III choragi davomida “Autosanoat Agro lizing” MChJning "Monitoring bo‘limi"ga bir nafar xodim etakchi mutaxassis lavozimiga, "Yuridik bo‘limi"ga bir nafar xodim etakchi yuristkonsult lavozimiga, Toshkent viloyati mintaqaviy filialiga bir nafar xodim bosh mutaxassis lavozimiga hamda Samarqand viloyati mintaqaviy filialiga bir nafar xodim bosh mutaxassis lavozimiga ishga qabul qilingan.

Ushbu nomzodlar tomonidan taqdim qilingan hujjatlar asosida jamiyatning xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassisi tomonidan tekshirishlar o‘tkazilib ijobiy xulosa berildi.

Mazkur nomzodlar tomonidan lavozimga qabul qilishdan oldin manfaatlar to‘qnashuvi deklerasiyalari to‘ldirildi va ushbu to‘ldirilib taqdim etilgan manfaatlar to‘qnashuvi deklarasiyalari bo‘yicha amalga oshirilgan o‘rganishlar natijasida manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanmadi.

Bundan tashqari, "Buxgalteriya xisobi va xisoboti bo‘limi"ning bir nafar bosh mutaxassisi "Buxgalteriya xisobi va xisoboti bo‘limi"ining boshlig‘i – bosh hisobchi lavozimiga hamda “Monitoring bo‘limi”ning bir nafar etakchi mutaxasisi "Buxgalteriya xisobi va xisoboti bo‘limi"iga bosh mutaxassis lavozimiga rotasiya qilindi.

**Korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilot shartnomalariga kiritish:**

Jamiyat tomonidan xarid yo‘nalishida tuzilayotgan barcha shartnomalarda korrupsiyaga qarshi shartlar nazarda tutilgan;

Hisobot choragi davomida kontragentlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalar bekor qilingan holatlar bo‘lmagan.

**Kontragentlarni tekshirish**

“Autosanoat Agro lizing” MChJda kontragentlarni “Biznes hamkorlarni Kompleks tekshirish” proseduralida belgilangan tartib asosida tekshirish ishlarini amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilgan.

“Autosanoat Agro lizing” MChJ, "O‘zAutosanoat" AJ boshqaruvining 27.09.2021 yildagi 13-01-10-33 sonli majlis bayonnomasi asosida tashkil etilgan bo‘lib, unga ko‘ra Autosanoat AJ tizimiga tegishli hamda unga ishonchli boshqaruvga berilgan korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan qishloq xo‘jaligi texnikalari va boshqa texnikalarni lizing orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etkazib beruvchi klasterlar va fermer xo‘jaliklariga lizing asosida etkazib berishdan iborat. Shu sababli, 2025 yilning I yarmi davomida ushbu mahalliy ishlab chiqaruvchilardan texnikalarni xarid qilish uchun shartnomalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan.

Shuning bilan bir qatorda, “Autosanoat Agro lizing” MChJ va uning joylardagi mintaqaviy filiallari uchun 2025 yilning III choragi davomida zarur bo‘lgan xarajatlarni (qishloq xo‘jaligi texnikalarini mintaqaviy filiallarga etkazib berish uchun logistika xarajatlari, kanselyariya tovarlari, xizmat mashinalari uchun ehtiyot qismlar va xo‘jalik mollari) amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuniniga binoan, elektron do‘konlar orqali shartnomalar tuzilgan..

**Ishga qabul qilish uchun nomzodlarni tekshirish**

“Autosanoat agro lizing” MChJga 2025 yil III chorak davomida ishga qabul qilish uchun jami 13 ta nomzodlar tomonidan tegishli hujjatlar taqdim qilingan bo‘lib, jamiyatning “Xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassisi” tomonidan tekshiruvlar o‘tkazilgan va shundan 4 ta nomzodlar bo‘yicha ijobiy xilosalar berilgan.

Ijobiy xilosalar berilgan Ishga qabul qilingan va ushbu xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgani holda mehnat shartnomalari tuzilgan.

**V. Ta'lim va kommunikasiya**

Jamiyat xodimlariga 2025 yil III chorakda jamiyat tomonidan qabul qilingan “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi

to‘g‘risida”gi nizomi bo‘yicha jamiyatning yuridik bo‘lim boshlig‘i, xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassisi hamda komplaens xizmati mutaxassisi bilan birgalikda 2025 yilning 24 sentyabr kunida ZOOM dasturi orqali o‘qish o‘tkazildi. O‘tkazilgan o‘qish yakuni bo‘yicha bayonnoma va o‘quv varaqlari rasmiylashtirilgan.

Jamiyatning 12 nafar xodimlari, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Xuquqni Muxofoza Qilish Akademiyasi tomonidan 2025 ilyu oyida o‘tkazilgan “Davlat Xizmatida Xalolikni ta'minlash mavzusidagi 24 soatlik maxsus o‘quv kurslarida qatnashib, yakuni bo‘yicha sertifikatlar olishgan.

## VI. Korrupsiyaviy hatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

Korrupsiyaviy hatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risida ma'lumot va xabarlar “Autosanoat Agro lizing” MChJ aloqa kanallari orqali 2025 yilning III choragi davomida kelib tushmagan.

Jamiyatga 2025 yilning 9 oyi davomida jami 273 ta, shundan 2025 yilning III choragi davomida 72 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ushbu murojaatlar jamiyatdagi murojaatlar bilan ishlashga mas’ul xodim - Xodimlar va ish yuritish bo’yicha bosh mutaxassis tomonidan jamiyat rahbariyatiga taqdim etilgan va tegishli tartibda ko’rib chiqilgan.

## VII. Monitoring va nazorat

Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

Tashkilot xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi;

Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

Tashkilotdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat.

## VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

“Autosanoat agro lizing” MChJda 2025 yil III chorak davomida korruptsiyaga qarshi kurashish to’g’risidagi talablarga amal qilinishida qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘yilmagan.

## IX. Xulosalar

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar:

Biznes reja bajarilishini nazoratga olish;

Komplaens faoliyatini rivojlantirish;

Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

Tashkilot xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi;

Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

Tashkilotdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazoratga olish hisoblanadi.

Komplaens xizmati tomonidan o'z vazifasini bajarish borasida, korrupsiyaga qarshi kurash qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, jamiyat tomonidan qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarga amal qilib kelinmoqda.

## X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

2025 yil III chorak davomida amalga oshirilgan chora-tadbirlardan kelib chiqib, quyidagilar taklif qilinadi.

Moliya va iqtisodiy sohada xavflarni oldini olish maqsadida xarajatlar amalga oshirilishi jarayonida parallel ravishda nazorat yuritish;

Komplaens xizmati faoliyatini rivojlantirish maqsadida jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun profilaktik ishlarini amalga oshirish va ularga qarshi kurashish bo'yicha trening va seminarlar tashkil qilish;

Ichki lokal xujjatlarni takomillashtirish;

Yangi ishga qabul qilingan xodimlar bilan Komplaens bo'yicha shartlarni kiritgan holda Mehnat shartnomalarini tuzish;

Moliyaviy ta'minlashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etmaslik holatlari mavjudligi ehtimolini tahlil qilishda jamiyatda qonunchilik talablariga muvofiq jamiyat faoliyati tizimli ravishda auditdan o'tkazishni, qonunchilik talablariga muvofiq o'z vaqtida olib borishni ta'minlash.

**Komplaens xizmati bo'yicha**
**bosh mutaxassis** **U.Sultanboev**